


NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI
(2022- yil yanvar-oktabr oylari uchun dastlabki ma`lumot)

Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yil yanvar-oktabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1 047,2 mln.AQSh dollarini tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 118,3 % ni tashkil etdi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI
(yanvar-oktabr, mln.AQSh dollari)

Ma`lumot uchun: Namangan viloyati tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi 476,1 mln.AQSh dollariga (18,2 % ga ko'paydi) va import hajmi 571,2 mln.AQSh dollariga (18,3 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 95,1 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

**NAMANGAN VILOYAT
BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR
(2022- yil yanvar-oktabr, mln.AQSh dollari, ulushi, % da)**

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Rossiya Federatsiyasi	337,6	245,4	92,2	32,2
Xitoy	232,8	32,1	200,7	22,2
Qozog'iston	87,7	32,9	54,8	8,4
Turkiya	83,9	37,5	46,4	8,0
Qirg'iziston	66,7	51,5	15,2	6,4
Germaniya	30,1	8,0	22,1	2,9
Belorussiya	28,0	1,9	26,2	2,7
Polsha	18,3	8,5	9,8	1,8
Litva	18,3	5,1	13,2	1,8
Koreya Respublikasi	16,5	1,9	14,5	1,6

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Namangan viloyati, jahonning 72 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (32,2 %), Xitoy Xalq Respublikasida (22,2 %), Qozog'istonda (8,4 %), Turkiyada (8,0 %), Qirg'iz Respublikasida (6,4%), Germaniya (2,9 %) va Belorussiya (2,7 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston va Qirg'iz Respublikalari bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qirg'iziston va Qozg'iston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya, Xitoy, Germaniya, Turkiya va Respublika Koreya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan ikta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (337,6 mln.AQSh.dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (232,8 mln.AQSh.dollari), shular jumlasidandir. Qolgan 18 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**NAMANGAN VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-oktabr, ming.AQSh.dollari)**



Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Rossiya Federatsiyasi	202024,7	251022,6	337627,6
Eksport	121289,8	166955,2	245424,1
Import	80734,9	84067,4	92203,5
Saldo	40554,9	82887,9	153220,6
Xitoy	189474,8	216804,1	232830,9
Eksport	35769,9	60397,1	32110,9
Import	153704,9	156406,9	200720,0
Saldo	-117935,1	-96009,8	-168609,1
Qozog'iston	81856,2	92236,3	87746,9
Eksport	42626,7	37670,2	32925,5
Import	39229,5	54566,1	54821,4
Saldo	3397,2	-16895,9	-21895,9
Turkiya	51581,5	84994,7	83895,4
Eksport	16250,1	28918,5	37535,6

Import	35331,4	56076,2	46359,8
Saldo	-19081,3	-27157,7	-8824,2
Qirg'iziston	94881,9	63218,7	66665,6
Eksport	87242,9	56138,5	51491,0
Import	7639,0	7080,3	15174,6
Saldo	79603,9	49058,2	36316,3
Germaniya	15677,7	14026,2	30093,9
Eksport	3643,3	2394,6	8006,2
Import	12034,4	11631,6	22087,7
Saldo	-8391,2	-9237,0	-14081,5
Belorussiya	2593,5	14419,5	28043,1
Eksport	1949,0	1864,8	1870,0
Import	644,5	12554,7	26173,1
Saldo	1304,5	-10689,9	-24303,1
Polsha	7819,1	13365,3	18344,2
Eksport	6104,0	6398,4	8529,2
Import	1715,1	6966,8	9814,9
Saldo	4388,9	-568,4	-1285,7
Litva	3292,7	4272,2	18343,9
Eksport	224,8	679,4	5130,6
Import	3067,9	3592,8	13213,2
Saldo	-2843,1	-2913,4	-8082,6
Koreya Respublikasi	16039,8	9929,4	16479,0
Eksport	278,7	340,1	1936,3
Import	15761,1	9589,3	14542,6
Saldo	-15482,3	-9249,2	-12606,3
Turkmaniston	5247,3	9261,5	11344,0
Eksport	3094,4	3270,2	5829,9
Import	2152,9	5991,3	5514,1
Saldo	941,5	-2721,1	315,9
Ukraina	10316,0	13650,2	10053,0
Eksport	7716,0	8296,8	5896,6
Import	2600,1	5353,5	4156,4
Saldo	5115,9	2943,3	1740,2

Hindiston	12085,5	15464,0	9243,8
Eksport	325,0	656,1	548,0
Import	11760,5	14807,9	8695,8
Saldo	-11435,4	-14151,8	-8147,8
Tojikiston	5326,5	5451,8	8718,1
Eksport	3830,3	4213,2	5702,8
Import	1496,1	1238,6	3015,3
Saldo	2334,2	2974,6	2687,6
Malayziya	7213,4	5254,1	8279,3
Eksport	-	4,1	-
Import	7213,4	5250,0	8279,3
Saldo	-7213,4	-5245,9	-8279,3
Frantsiya	4742,7	6073,2	8004,2
Eksport	-	-	67,8
Import	4742,7	6073,2	7936,5
Saldo	-4742,7	-6073,2	-7868,7
Pokiston	3327,4	1275,9	7744,0
Eksport	3144,4	746,7	6012,2
Import	183,0	529,2	1731,8
Saldo	2961,4	217,5	4280,5
Eron	2849,0	6635,6	6933,6
Eksport	650,0	1595,3	3643,8
Import	2199,0	5040,3	3289,7
Saldo	-1549,0	-3445,1	354,1
Indoneziya	246,7	1648,3	5439,8
Eksport	144,9	-	-
Import	101,8	1648,3	5439,8
Saldo	43,1	-1648,3	-5439,8
Italiya	4582,0	6847,8	5076,3
Eksport	2061,9	1089,5	1381,8
Import	2520,1	5758,3	3694,5
Saldo	-458,2	-4668,8	-2312,7

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022 - yil yanvar-oktabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 53,0 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2021- yilga nisbatan ulushi 4,0 % ga ko'paygan.

**NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA
MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-oktabr % va ulushi)**




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2022- yil yanvar-oktabr oylarida 2021- yilning shu davriga nisbatan kamaydi (4,0 % ga) va jami TSA dagi ulushi 47,0 % ni tashkil etdi.

NAMANGAN VILOYATINING EKSPORTI (2022- yil yanvar-oktabr)

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning eksportyorlar soni 463 tani tashkil etib, ular tomonidan 476,1 mln.AQSh.dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2021- yilning mos davriga nisbatan 18,2 % ga ko'paydi tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,7 % ni tashkil etib, ular Sanoat tovarlari (54,5 %), Xar-xil tayyor mahsulotlar (20,5 %) va Oziq ovqat mahsulotlari (16,6 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

EKSPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)





MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-oktabr)

XSST tarkibi	Mln.AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	476,1	353,0	123,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	79,3	51,0	28,3	16,6	14,4	23,0
Ichimliklar va tamaki	1,1	1,0	0,0	0,2	0,3	0,0
Oziq-ovqat bo'lmagan xom ashyo, yoqilg'idan tashqari	7,4	2,1	5,3	1,6	0,6	4,3
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,1	0,9	0,2	0,2	0,3	0,2
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	11,7	6,4	5,3	2,5	1,8	4,3
Ishlab chiqarilgan mahsulotlar	259,3	191,4	67,9	54,5	54,2	55,2
Mashina va transport uskunalari	7,6	7,5	0,2	1,6	2,1	0,1
Har xil tayyor mahsulotlar	97,7	87,0	10,7	20,5	24,6	8,7
Xizmatlar	10,9	5,7	5,2	2,3	1,6	4,2

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinlarda eksport

hajmi bo'yicha asosan yengil sanoat tovarlari, qora va rangli metallar, mashina va asbob-uskunalar va kimyo mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda.

**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR
VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-oktabr, % va ulushi)




2022- yilning yanvar-oktabr oyi yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 51,6 %), Qirg'iz Respublikasi (10,8 %), Turkiya (7,9 %), Xitoy Xalq Respublikasi (6,9

%), Qozog‘iston (6,7 %), Polsha (1,8 %) va Germaniya (1,7 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 87,4 foizni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo‘yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo‘yicha peshqadamlikni saqlab qolmoqda.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo‘yicha geografiyasi 2022 – yilning mos davrida 52 davlatga eksport amaliyotini amalga oshirgan.

NAMANGAN VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-oktabr, % da)



**TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTIDAGI YIGIRMATA
YIRIK HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-oktabr)**

Davlatlar	Ming.AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Rossiya Federatsiyasi	166955,2	245424,1	137,6	147,0	1	1
Qirg'iziston	56138,5	51491,0	64,3	91,7	3	2
Turkiya	28918,5	37535,6	178,0	129,8	5	3
Qozog'iston	37670,2	32925,5	88,4	87,4	4	4
Xitoy	60397,1	32110,9	168,8	53,2	2	5
Polsha	6398,4	8529,2	104,8	133,3	7	6
Germaniya	2394,6	8006,2	65,7	334,3	12	7
Pokiston	746,7	6012,2	23,7	805,2	19	8
Ukraina	8296,8	5896,6	107,5	71,1	6	9
Turkmaniston	3270,2	5829,9	105,7	178,3	11	10
Tojikiston	4213,2	5702,8	110,0	135,4	8	11
Litva	679,4	5130,6	302,2	755,2	20	12
Afg'oniston	3793,7	3947,2	156,2	104,0	9	13
Eron	1595,3	3643,8	245,4	228,4	15	14
Ozarbajjon	660,5	2019,6	82,3	305,8	21	15
Koreya Respublikasi	340,1	1936,3	122,0	569,3	23	16
Belorussiya	1864,8	1870,0	95,7	100,3	13	17
Gruziya	1228,9	1643,0	196,8	133,7	16	18
Belgiya	1043,7	1494,6	4508,0	143,2	18	19
Isroil	603,7	1480,9	237,3	245,3	22	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari va turli xil tayyor buyumlar kiradi.

Xizmatlar eksporti hajmi 10 869,8 ming.AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 2,3 % ini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 90,3 % ga kamayganligi kuzatildi.

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 259,3 mln.AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 54,5 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 120,0 % ga o'sdi.


Viloyatning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

NAMANGAN VILOYATINING IMPORTI (2022- yil yanvar-oktabr)

2022 - yil yanvar-oktabr oyida import hajmi 571,2 mln.AQSh dollarini va 2021-yilning mos davriga nisbatan 118,3 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunalari (33,4 %), Sanoat mahsulotlari (23,3 %) hisobiga to'g'ri keldi.

IMPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-oktabr, ulushi, % da)



- Oziq-ovqat va tirik hayvonlar
- Xom ashyo yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat hisoblanadi
- Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar
- Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar
- Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar
- Sanoat mahsulotlari
- Mashinalar va transport uskunalari
- Turli xil tayyor mahsulotlar

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 88,4 mln.AQSh dollariga ko'paydi va 571,2 mln.AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,8 ming.AQSh dollariga yetdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-oktabr)**



XSST tarkibi	Mln.AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	571,2	202,2	369,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	86,0	63,5	22,5	15,1	31,4	6,1
Xom ashyo yoqilg'idan tashqari noziq-ovqat hisoblanadi	34,4	27,9	6,5	6,0	13,8	1,8
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	17,8	17,2	0,6	3,1	8,5	0,2
Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar	21,1	8,2	13,0	3,7	4,0	3,5
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	72,1	18,4	53,7	12,6	9,1	14,6
Sanoat mahsulotlari	133,0	44,9	88,1	23,3	22,2	23,9
Mashinalar va transport uskunalari	191,0	20,1	170,9	33,4	9,9	46,3
Turli xil tayyor mahsulotlar	15,6	2,1	13,5	2,7	1,0	3,7

Importning eng katta ulushi, jumladan, Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar mahsulotlar (31,4 %) Sanoat mahsulotlari (22,2 %) ni MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush Mashina va transport uskunalari (46,3 %), Sanoat mahsulotlari (23,9 %) va hissasiga to'g'ri keladi.

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki,

2021- yilning mos davriga nisbatan Mashina va asbob-uskunalar 13,5 % ga, kimyo mahsulotlari va buyimlari importining ulushi 24,0 % ga va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importining ulushi 21,8 % ga oshdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR
VA XIZMATLAR IMPORTI
(yanvar-oktabr, % va ulushi)**




Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlat-lar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 35,1 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini 16,1 % ortda qoldirgan holda, birinchi o'rinni egalladi.

TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2021- y.	2022-y.	2021- y.	2022-y.	2021- y.	2022-y.
Xitoy	156406,9	200720,0	101,8	128,3	1	1
Rossiya Federatsiyasi	84067,4	92203,5	104,1	109,7	2	2
Qozog'iston	54566,1	54821,4	139,1	100,5	4	3
Turkiya	56076,2	46359,8	158,7	82,7	3	4
Belorussiya	12554,7	26173,1	1948,1	208,5	6	5
Germaniya	11631,6	22087,7	96,7	189,9	7	6
Qirg'iziston	7080,3	15174,6	92,7	214,3	9	7
Koreya Respublikasi	9589,3	14542,6	60,8	151,7	8	8
Litva	3592,8	13213,2	117,1	367,8	17	9
Polsha	6966,8	9814,9	406,2	140,9	10	10
Hindiston	14807,9	8695,8	125,9	58,7	5	11
Malayziya	5250,0	8279,3	72,8	157,7	15	12
Frantsiya	6073,2	7936,5	128,1	130,7	11	13
Turkmaniston	5991,3	5514,1	278,3	92,0	12	14
Indoneziya	1648,3	5439,8	1619,0	330,0	20	15
Ukraina	5353,5	4156,4	205,9	77,6	14	16
Shveytsariya	2630,8	4027,3	19,0	153,1	19	17
Italiya	5758,3	3694,5	228,5	64,2	13	18
Latviya	3086,2	3423,2	199,3	110,9	18	19
Eron	5040,3	3289,7	229,2	65,3	16	20

2021- yining mos davriga nisbatan 64 davlatdan 66 davlatga ko'paydi.

**NAMANGAN VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2022- yil yanvar-oktabr % da)**



Sakkista yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog`iston, Belarus, Germaniya, Qirg`iz Respublika) jami importning 80,1 % ini tashkil qiladi, bu 475 540,1 ming.AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunarlar, shuningdek, ularning qismlari importining o`shishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Rossiya, Qozog`iston, Turkiya va Belarus tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo`limi
Tel.:(69)-211-72-00